

- 1- Хантингтон С. Третья волна: Демократизация в конце XX века. – М.: Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН), 2003. – С. 15–90.
- 2- Линц Х.Х., Степан А. Проблемы демократического перехода и консолидации: Южная Европа, Южная Америка и посткоммунистическая Европа. – М.: Весь Мир, 2001. – С. 3–45.
- 3- Карозерс Т. Переход от авторитаризма: предварительные выводы о неопределённых демократиях. – М.: Издательство ИНИОН РАН, 2002. – С. 23–70.
- 4- Даймонд Л. Развитие демократии: путь к консолидации. – М.: Издательство Московского центра Карнеги, 2003. – С. 45–110.
- 5- Левицкий С., Вэй Л. Конкурентный авторитаризм: гибридные режимы после холодной войны. – М.: Издательство «Логос», 2011. – С. 5–50.
- 6- Марат Э., Коллинз К. Политика Центральной Азии. – Вашингтон: University of Washington Press, 2016. – С. 85–130.
- 7- Линц Х.Х., Шмиттер Ф., Степан А. Крах демократических режимов. – М.: Московская школа политических исследований, 1996. – С. 10–60.
- 8- Фиш М. Демократия в тупике: провал открытой политики в России. – Кембридж: Cambridge University Press, 2005. – С. 12–70.
- 9- Freedom House. Nations in Transit. – Washington D.C., 2000–2024 гг. – (ежегодные отчёты, URL: <https://freedomhouse.org>).
- 10- Omonov B., Isanova G. Siyosiy tizim. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent, Mumtoz so‘z, 2023. –336 bet

ALLOMALAR YURTIDIR BU O‘ZBEKISTON

Ibadullaev Saloxiddin

Nurobod tumani 2-son politexnikumi rus tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: *O‘zbekiston — Markaziy Osiyoda joylashgan, boy tarixi, madaniyati va tabiat manzaralari bilan ajralib turadigan davlatdir. Ushbu mamlakat qadimiy shaharlari, masalan, Samarqand, Buxoro va Xiva, buyuk ilm-fan va san‘at markazlari bo‘lgan. O‘zbekistonning o‘ziga xosligi uning an‘anaviy hunarmandchiliklari, mehmondo‘stligi va milliy taomlari bilan ham bog‘liq. Mamlakatda ko‘plab tarixiy obidalar, masjidlar va qal‘alar mavjud bo‘lib, ular UNESCOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekistonning tabiati ham xilma-xil: cho‘l, tog‘ va daryo manzaralari sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi.*

Kalit so‘zlar: *tarixiy shaxslar, madaniy meros, ta’lim, sayyohlik, an‘anaviy hunarmandchilik, ilm-fan va madaniyat.*

Аннотация: *Узбекистан — государство в Центральной Азии, отличающееся богатой историей, культурой и природными ландшафтами. Древние города этой страны, такие как Самарканд, Бухара и Хива, были крупными центрами науки и искусства.*

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Уникальность Узбекистана также связана с его традиционными ремеслами, гостеприимством и национальной кухней. В стране много исторических памятников, мечетей и крепостей, которые включены в список Всемирного наследия ЮНЕСКО. Природа Узбекистана также разнообразна: пустынные, горные и речные ландшафты привлекают туристов.

Ключевые слова: исторические личности, культурное наследие, образование, туризм, традиционные ремесла, наука и культура.

Abstract: *Uzbekistan is a country located in Central Asia, distinguished by its rich history, culture and natural landscapes. The ancient cities of this country, such as Samarkand, Bukhara and Khiva, were great centers of science and art. The uniqueness of Uzbekistan is also associated with its traditional crafts, hospitality and national cuisine. The country has many historical monuments, mosques and fortresses, which are included in the UNESCO World Heritage List. The nature of Uzbekistan is also diverse: deserts, mountains and river landscapes attract tourists.*

Key words: *historical figures, cultural heritage, education, tourism, traditional crafts, science and culture.*

Jahon ilm-fan taraqqiyoti rivojiga beqiyos hissa qo'shgan qutlug' ona diyorimizdan ilm-fanning barcha sohalarida jahonga dong taratgan buyuk allomalar etishib chiqqan. Vatanimiz tarixining o'chmas sahifalari ana shunday buyuk va mo'tabar zotlarning hayoti bilan chambarchas bog'liqdir. Shunday mutafakkir bobolarimizdan biri Muhammad Al-Xorazmiydir. Bugun butun dunyo foydalanadigan hisob-kitob amallari, zamonaviy texnologiyalar faoliyati ana shu bobokalonimiz yaratgan qoidalarga asoslanadi. Butun dunyo Xorazmiyning ilm-fan rivoji yo'lidagi hissasini yuksak qadrlaydi, uni voyaga etkazgan zaminga alohida ehtirom bilan qaraydi. Kuni kecha Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev huzurida qurilish loyihalari taqdimotida Urganch shahrida qurilishi rejalashtirilgan Al-Xorazmiy shaharchasining qurilish loyihasi bilan tanishdi. Loyihaga ko'ra, shaharchada ta'lim muassasalari, IT park, fan va madaniyat markazlari, sport majmuasi barpo etiladi. e'tiborlisi, shaharcha markazida Muhammad al-Xorazmiy maydoni qurilib, buyuk allomaning yangi haykali o'rnatiladi. Ajdodlarimizning xotirasini yodlashdek ulug'vor an'ananing qayta tiklangani mustaqilligimiz sharofaati bo'ldi. Alloma Beruniy, Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, hazrat Najmiddin Kubro, Imom Buxoriy, Moturidiy, Termiziy, sohibqiron Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi o'zbek allomayu jahongirlarining siymosi mustaqillik sharofaati bilan qayta qaddini ko'tardi. Bugungi kunda jahon bo'yicha ishlatilayotgan 1 dan 9 gacha bo'lgan matematik raqamlaruga nolni qo'shib, XX asr fani – kibernetikasiga asos solgan olim deyarli 1200 yil avval yashab o'tgan bizning ajdodimiz – al-Xorazmiy! Algebra fani, mashhur allomaning ismi bilan bog'liqligi, ya'ni al-Jabr bora-bora algebraga aylanganini, Algoritmi so'zi Al-Xorazmiy so'zining assimiliatsiyaga uchragan shakli ekanligini va bizning avlod uni o'qib matematikani

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

o‘rganayotganligini bugungi kunda jahon ahli tan olyapti. Yerning dumaloq shaklda ekanligini isbotlab, dunyo xaritasini tuzgan va uni globus shaklida birinchi aks ettirgan ensiklopedik olim Abu Rayhon Beruniy ekanligini o‘quvchilar ongi-shuuriga qayta-qayta quyish an’anaga aylanganligi kishida iftixor tuyg‘usini yuksaltiradi. Mukammal tibbiyot qonunlarini yaratgan Abu Ali ibn Sino kitoblaridan jahon tibbiyotida hamon dasturulamal sifatida foydalanilmoqda. Agar e’tibor bersak, “Tib qonunlari”da murakkab jarrohlikdan tortib, oddiy ovqatlanish madaniyatigacha o‘rgatilgan. Inson salomatligini avaylash avvalo o‘zidan, oddiy ovqatlanish madaniyatidan boshlanadi, degan o‘gitlari bugungi kunda har bir farzandga singdirilmoqda?! Daryolar suvini o‘lchaydigan uskuna yaratgan va dastlab Nilning suv hajmi-yu sig‘imini o‘lchab bergan bizning vatandoshimiz al-Farg‘oniy! “Ziji Kurogoniy” asarida yulduzlar jadvalini tuzib falakiyot ilmini dunyoga tanitgan ham bizning ajdodimiz Mirzo Ulug‘bek! Hazrat Alisher Navoiyning “Majolis-ul-nafois” va Nasoimul-muhabbat” asarlarida ajdodlarimizning ta’rifutavsiflari go‘zal ifoda etilgan 500 dan ortiq shoiru fuzaloni e’tirof etganlar. Ajdodlarimizdan urf bo‘lgan bu an’anani kelgusi avlodlarimizga yetkazish bizning burchimiz. Beruniy, Xorazmiy, Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Jaloliddin Manguberdi kabi ulug‘larimiz navqiron avlodning g‘urur tog‘laridir. Mamlakatimiz istiqloli tufayli Islom madaniyati va taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan Zamaxshariy, Imom Buxoriy, Moturidiy, Termiziy kabi allomalarning kitoblari o‘rganila boshlandi.

O‘zbekiston Buyuk allomalar yurti deganimizda dunyoni o‘z ilmi bilan larzaga solgan hadis ilmining sultoni, betakror ilm sohibi Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, algebra faniga asos solgan Muso al-Xorazmiy, “Astronomiya asoslari” fundamental olamning tuzilishi, yerning o‘lchovi haqida dastlabki ma’lumotlarni IX asrda bera olgan Ahmad Farg‘oniy, ulug‘ qomusiy alloma, birinchi bo‘lib yer shari globusini yaratgan Abu Rayhon Beruniy, meditsina otasi deb tan olingan Abu Ali ibn Sino, “Sharq Aristoteli” deb nom olgan buyuk alloma Abu Nasr Farobiy, 1018 ta yulduzni holatini va joylashuvini XV asrda bayon qilib bergan astronomiya sohasida buyuk alloma Mirzo Ulug‘bek, “Musulmonlarning e’tiqodini tuzatuvchi” degan yuksak sharafiga sazovor bo‘lgan, kalom ilmining yetuk allomasi Imom Moturudi, “Din va millatning hujjati” degan nom bilan ijod qilgan islom huquqshunoslaridan biri Burhoniddin Marg‘inoniy, “Diling Alloh, qo‘ling mehnatda bo‘lsin” degan purma’no so‘zlar sohibi, dunyoga mashhur bo‘lgan buyuk alloma Bahouddin Naqshband hazratlari, o‘zbek tilining asoschisi, yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda “Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultoni” bo‘lgan, jahon adabiyoti tarixida porloq yulduz bo‘lib porlagan hazrat Alisher Navoiy va yana shunga o‘xshash minglab aziz avliyo, olimu ulamo, fozilu fuzalolarni misol keltira olamiz. Allohning nazari tushgan olimlarning ona zaminimizda qo‘nim topishlari, shu zamin tuprog‘ida mangu yotishlarida hamhikmatlar bisyor. Shunday ekan tashlayotgan qadamlarimizni, olayotgan ilmimizni, gapirayotgan gapimizni ustozlarga munosib shogirt sifatida amalga oshirishimiz zarur. O‘zbekiston — tarixiy va madaniy jihatdan boy, ko‘plab allomalarning vatani bo‘lgan

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

mamlakatdir. O‘zbekiston hududi qadimdan ilm-fan va madaniyat markazi sifatida tanilgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent kabi shaharlar dunyo miqyosida mashhur bo‘lgan ilmiy maktablar, madrasalar va kutubxonalar bilan ajralib turadi. Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi buyuk allomalar o‘z asarlari orqali nafaqat Sharq, balki G‘arb olamiga ham katta ta'sir ko‘rsatganlar. Ularning ilmiy yutuqlari bugungi kunda ham o‘rganilmoqda va qadrlanmoqda. Al-Xorazmiy – matematik, astronom va geograf. U algebra fanining asoschisi hisoblanadi. Uning "Al-Kitob al-Mukhtasar fi Hisob al-Jabr va al-Muqobala" asari matematikada yangi davrni boshlab berdi. Abu Rayhon Beruniy – olim, tarixchi, astronom va geograf. U o‘z asarlarida yerning shakli, uning aylanishi va boshqa ko‘plab ilmiy masalalarni o‘rganib, zamonining eng yirik olimlaridan biriga aylandi. Ibn Sino – shifokor, faylasuf va olim. Uning "Tibbiyot qonunlari" asari o‘z davrida tibbiyot sohasida inqilobiy yangiliklar kiritdi. Ibn Sino tibbiyotning asoslari va inson anatomiyasi haqidagi bilimlarni rivojlantirdi. Bugungi kunda O‘zbekiston ilm-fan va ta’lim sohasida katta yutuqlarga erishmoqda. Mamlakatda ko‘plab universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyat yuritmoqda. Yosh avlodni tarbiyalashda buyuk allomalar merosini davom ettirishga e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim tizimida innovatsion metodlar joriy etilmoqda va xalqaro standartlarga mos keladigan bilim berish tizimi yaratilmoqda. O‘zbekistonning madaniy merosi ham juda boydir. O‘zbek adabiyoti buyuk allomalar tomonidan yaratilgan asarlar bilan to‘ldirilgan. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk shoirlar va yozuvchilar o‘z asarlari orqali milliy o‘zlikni saqlab qolishga xizmat qilganlar. Ularning ijodi hozirgi avlod uchun ham ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston — allomalar yurtidir. Buyuk allomalarimizning ilmiy merosi, ularning asarlari va fikrlari bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmaydi. Bizning vazifamiz esa bu merosni saqlash, o‘rganish va yosh avlodga yetkazishdir. O‘zbekistonning ilm-fan va madaniyat sohasidagi yutuqlari xalqimizning ma’naviy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi va kelajak avlodni barkamol insonlar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR:

1. Milliy uyg‘onish va o‘zbek filologiyasi masalalari. -T.: Universitet, 1993.
2. Qosimov B., Dolimov U. Ma’rifat darg‘alari. T.: O‘qituvchi, 1990.
3. Karimov G’. O‘zbek adabiyoti tarixi. 3-kitob. –T., 1975.
4. Yusupov Sh. Xudoyorxon va Furqat. –T.: Sharq, 1997.
5. Jabborov N. Furqat merosi va Xitoy manbalari. G‘G’ Sharq yulduzi. 2001. Ikkinchi fasl, 121-127-betlar.
6. <https://parliament.gov.uz/articles/285>
7. <https://muslim.uz/uz/e/post/30613-o-zbekiston-buyuk-allomalar-yurti?page=3&per-page=1>